

KICHIK DARYOLARDA KATTA HAYOT

Erdonova Mahliyo Mustaqulovna

*Navbahor tumani 4- umumta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi Navoiy Davlat
Pedagogika instituti magistranti*

Yer shari aholisining ko'payib borishi, yangi-yangi fabrika-zavodlar, sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, yangi erlarning o'zlashtirilishi tufayli suvga bo'lgan talab yanada oshib ketdi.

Keyingi vaqtlarda er sharining ko'pgina xududlarida suv tanqisligi sezilmoqda. Ochiq suv havzalarini qishloq xo'jaligi, kommunal xo'jalik va sanoat korxonalarining oqava suvlari bilan iflaslanayotgani tufayli ham toza suv tobora tanqis bo'lib boryapti, 1 kub metr iflos suv 40-60 kub metr toza suvni ifloslaydi. Shuning uchun ham bizning mamlakatimizda suv manbalarini muhofaza qilish umimdavlat ishiga aylangan.

"O'zbekistonda suvni muhofaza qilish va undan foydalanishni nazorat qilish to'g'risida" qonun qabul qilingan. Bu qonun talablariga muvofiq suvni muhofaza qilish va undan foydalanishda davlat nazoratiga hamma vazirliklarga karashli korxonalar rioya qilishlari kerak.

Suv havzalarini muhofaza qilishning asosiy omillaridan biri sanoat korxonalarida oqova suvlarni zararsizlantirish uchun tozalash inshooti qurishdir. Chunki sanoat korxonalarini qurilishi tozalash inshootlari qurilishidan o'zib ketayapti.

Bundan tashqari ayrim korxonalar oqova suvlarini kimyoviy tarkibiga qarab shahar kanalizatsiyasiga oqizib bo'lmaydi, chunki biologik tozalashda qatnashadigan foydali mikroblarni o'ldirib yubormaslik uchun suv tarkibidagi zaharli kimyoviy moddalarni tozalash inshootida yo'qotish zarur bo'ladi.

Qonun asoslariga ko'ra suvni ifloslantirish, oqova iflos suvlarni toza suv havzalariga oqizish cheklab qo'yilgan. Shuningdek, bu qonunchilikda suv sifatini o'zgartirishlarga uchrashdan asrash, baliq zaxiralarining kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, suvning tabiiy tozalanish xususiyatini saqlash, gidrologik rejimlarning buzilishdan ehtiyot bo'lish hamda suv manbalarini ifloslanishidan muhofaza qilish zarurligi qayd qilingan.

Sanoat korxonalarini va kommunal xo'jalikda shu korxonalar chiqindi suvlarini tozalaydigan inshootlar bo'lishi lozim, aks holda ularga ishlash uchun ruxsat berilmaydi. Toza suv sifatiga ta'sir qiladigan, odamlar salomatligiga xavf tug'diradigan suvlargina sanitariya epidemiologiya stansiyasi ruxsati bilan ochiq suv havzalariga oqiziladi.

Kichik daryolarni yirik sanoat korxonalarini, koramolchilik kompleksi kabi sub'ektlarning oqava, tashlanma va chiqindi suvlaridan muhofaza qilish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday oqava suvlarni to'la tozalab, xlorlagandan keyin ham ochiq suv havzalarga tashlab bo'lmaydi. Ularga maxsus ishlov berib, so'ngra sug'oriladigan erlarga foydalanish kerak.

«Kichik daryolarga - katta hayot !» iborasi amalda davlat boyligini orttirishda va muhofaza qilishda jangavor shior bo'lishi zarur. Suv havzalarini muhofaza qilish uchun, barcha korxonalarda va ob'ektlarda nazorat postlari o'rnatish, suvni toza saqlash va undan to'g'ri foydalanish uchun korxonalararo maslahatlar o'tkazish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Suv havzalarining ekologik va sanitariya xolatini kuzatish uchun ularni ifloslaydigan manbalarni mukammal bilish kerak, shundagina sanoat korxonalarini oqava chiqindi suvlari tarkibini bilish va bu suvlarni tozalash va zararsizlantirish imkoni yuzaga keladi.

Bizningcha, suv havzalarini tegishli tartibda muhofaza qilish uchun korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, buning uchun iloji boricha suvsiz va chiqindisiz texnologiya jarayonlarini ishlab chiqish lozim. Bu kabi usullarni qo'llash mumkin bo'lmagan sanoat korxonalarida suvni iloji boricha kam ishlatishga erishish kerak. Bundan tashqari, chiqindi suvlardan foydali moddalarni ajratib olib, zararli moddalarni tutib qolish, tozalangan suvlardan texnik maqsadlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonuni. 1993.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7 aprel 1992 yildagi "Kichik daryolarni muhofaza mintaqasini o'rnatish" to'g'risida 174-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2020 yil 24 iyundagi № 169-sonli buyrug'i.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 21 oktyabrdagi № 401-sonli "Zarafshon daryosining sanitar- epidemiologik va ekologik holatini yaxshilash to'g'risida" gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 oktyabrdagi "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 820-sonli Qarori.